



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Вахтиёр Berdiyorov**

*Toshkent Alfraganus universiteti “Xalqaro turizm menejmenti” kafedrasi dotsenti*

**Annotatsiya.** Turizm sohasini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalaridan biri hisoblanadi. Turizm rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish orqali turistlarni mavjud turizm salohiyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan ta’minlashni tashkillashtirish, ichki turizmni, mamlakat hududlaridagi madaniy meros ob’ektlarining va ziyoratning o‘ziga xosliklarini targ‘ib qilishni jadal rivojlantirish har bir mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** turizmt, iqtisodiyot, ziyorat, tur, investitsiya, salohiyat, turist, milliy qadriyat, madaniy meros, infratuzilma eksport.

**Abstract.** *The development of the tourism sector is one of the most pressing issues today. One of the main tasks facing every country is to organize the provision of tourists with information about the existing tourism potential by creating favorable socio-economic conditions for the development of tourism, to rapidly develop domestic tourism, to promote the cultural heritage sites and the peculiarities of pilgrimage in the country's territories.*

**Key words:** *tourism, economy, pilgrimage, tour, investment, potential, tourist, national value, cultural heritage, infrastructure export.*

#### **Kirish.**

Bugungi globalizatsiya davrida turizm dunyo iqtisodiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan asosiy tarmoqlardan biriga aylangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki turiz aholining sayohat qilishi va dam olishini ta’minlovchi oddiy infratuzilma emas, balki mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘i sifatida shakllanib, mamlakat YAIM tarkibida o‘ziga xos ulushga ega bo‘lgan tarmoq hisoblanadi va shu sabali xukumat tomonidan turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Dunyo miqiyosida yetakchi mamlakatlardan Fransiya, Italiya, Ispaniya va Gresiya kabi mamlakatlar iqtisodiyotida turizm alohida o‘ringa ega va mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida bu sohaga e’tibor qaratilgan. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda xalqaro turizm tashriflari pandemiyadan oldingi darajaning deyarli 90 foiziga yetdi. 2023 yilning yanvar – sentyabr oylari orasida 975 million turist xalqaro miqyosda sayohat qilgan, bu 2022 yilning shu davriga nisbatan 38 foizga oshganidan dalolat beradi.

Turizm ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos katalizatori sifatida transport va aloqa, savdo, qurilish, qishloq xo‘jaligi, xalq iste’moli mollarini ishlab chiqarish va iqtisodiyotning boshqa shu kabi muhim sektorlarining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.





### **Adbiyotlar tahlili.**

N.To‘xliev (2022) MICE turizmi hozirgi davrga kelib jahon umumiy turizmining muhim segmentlaridan biriga aylanmoqda. Turizmning bu shakli ko‘lami va undan keladigan yalpi daromadlar jahonda yildan yilga o‘sib bormoqda. MICE ingliz tilidan olingen aberviattura bo‘lib korporativ uchrashuvlar, muzokaralar, turlar, dasturlar, konferensiya, kongresslar, seminarlar, ko‘rgazma-yarmarkalar, festival va konsertlar orqali amalga oshiriladi.

A.S. Abduxamidov (2022) Mamlakatimizda turistik infratuzilmani ham yetarli rivojlantirish lozim, ya’ni hududda ichki turizmnинг ham o‘rni katta bo‘lib, undan daromad olish, mahalliy aholi talablarini qondirib, unga xizmat ko‘rsatish, aholining saviyясini oshirish, odamlarni ish o‘rinlari bilan ta’minlash imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan.

I O‘roqboev (2024) “Ko‘hna tarix durdonalari” milliy dasturi ishlab chiqiladi hamda uning doirasida madaniy meros ob’ektlari restavratsiya qilinadi, yodgorliklarda “ochiq osmon muzeylari” tashkil etilishi asosida mamlakatimizda turizmni yanada rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanilayotganligini ko‘rsatib o‘tgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolada turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va qabul qilingan qonunlar, me’yoriy hujjatlar o‘rganilgan va turizmni rivojlantirish yuzasidan olib borilgan izlanishlari va fikrmulohazalari yoritilgan. Statistik, empirik tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv, statistik tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokama.**

Zamon talabidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish masalasi ham ustuvor vazifalardan biridir. Buning uchun an’anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini ham rivojlantirishni taqozo qiladi. Bizning mamlakatimizda ziyyarat turizmi, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog‘lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish imkoniyatlari ham yetarli. Endilikda ushbu salohiyatdan samarali foydalanish masalasi kun tartibida turgan muhim masalalar sirasiga kiradi.

Hozirgi paytda turizm sohasini jadal rivojlantirish, turizm industriyasini sub’ektlari faoliyatining barqarorligini ta’minlash uchun eng avvalo, ularga qulay shart-sharoitlarni shakllantirish va ularning taraqqiyotini ta’minlaydigan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish lozim bo‘ladi. Buning uchun birinchi galda sohaga yo‘naltirilgan turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ huquqiy bazani yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda turizmning rivojlanishidagi barcha to‘siq va g‘ovlarga barham berish, viza va ro‘yxatdan o‘tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish choralarini ko‘rish ham kechiktirib bo‘lmaydigan tashkiliy mexanizmlardandir.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Turizm sohasidagi eng muhim masalalardan yana biri, turistlarning xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liqdir. Bunda asosiy e’tiborni turizm xizmatlarini tashkil etishda, eng avvalo, turistlar joylashtiriladigan joylarda, mehmonxonalarda, ularni ovqatlantirish punktlarida xavfsizlikni ta’minlashga qaratmoq lozim. Ushbu jarayonda ovqatlarning sifatiga ham katta e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Turistlarning respublika hududi bo‘ylab harakatlanishida, turizm ob’ektlariga tashriflarni uyushtirishda ham mazkur masalaga alohida ahamiyat berilishini talab qilinadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun qulay shart sharoitlar, ulkan salohiyat va imkoniyatlar mavjud. Bu yerda ko‘plab mashhur allomalari yashab, ijod qilishgan. Shu bilan birga, mamlakatimizda vakillari va boshqa dinlar uchun ahamiyatli bo‘lgan tarixiy obidalar mavjud. Turizmning ushbu turini rivojlantirishga katta e’tibor berib, O‘zbekiston hukumati keng ko‘lamli tadbirlar o‘tkazmoqda.

Samarqandda 1851 ta moddiy madaniy meros ob’ekti mavjud bo‘lib, shundan 1105 tasi arxeologik, 670 me’moriy, 37 diqqatga sazovor joy, 18 monumental 21 memoreal toifaga kiruvchi obektdir. Bu kabi tarixiy obidalarning mavjudligi, ulug‘ alloma va mutafakkirlari bilan 36 dunyoga tanilgan Samarqandning – Sharq gavhari, O‘zbekistonning Tashrif qog‘ozi deb atalishi bejiz emas. Bular hammasi kelajakda turizmni yanada rivojlantirishda asos bo‘ladi. Turistik biznesning samarali rivojlanishi ham turistik mahsulotlarni ishlab chiqish, uni o‘z vaqtida iste’molchilarga (turistlarga) yetkazib berish bosqichlariga tegishli har bir jarayonga zamonaviy axborot texnologiyalarini, xususan aqlii texnologiyalarni tadbiq etishni nazarda tutadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning asosiy salmog‘i sayyoqlik turizmiga to‘g‘ri kelsa, xizmat yuzasidan kelganlarning ulushi ikkinchi o‘rinni egallagan. Qo‘sni mamlakatlardan kelganlarning asosiy qismi qarindoshlarini yo‘qlash maqsadida kelgan bo‘lsada, ularning bu yerda tijorat yoki sayyoqliq xizmatlaridan ham foydalanishi o‘z-o‘zidan yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa Markaziy Osiyo davlatlari turistlarining mamlakatdagi tibbiy xizmatlardan foydalanish ulushi ortib borayotganligi yanada quvonarli holatdir.

### **Xulosa va takliflar**

Turizmning o‘ziga xos xususiyati, bu mamlakatda bir maqsadda tashrif buyurgan sayyoqlar tomonidan, mahsulot va xizmatlarning boshqa turlariga talabning ortib borishidir. Ushbu talabni qondirish mamlakatda faoliyat olib borayotgan sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va boshqa kompaniyalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli turizm ma’lum darajada mamlakatda real sektorni rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu, o‘z navbatida, ishlab chiqarish va xizmatlarning oshishiga va mamlakatda qo‘sishcha daromadlarning shakllanishiga hamda mamlakatda turizm industriyasini rivojlanishiga olib keladi.

O‘zbekiston bugun iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarida dinamik o‘sish sur’atlarini namoyish etmoqda. So‘nggi yillarda turizm eng ilg‘or sohalardan biriga aylandi. Mamlakat





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



chet mamlakatlar uchun ochildi, viza qonunchiligi o‘zgardi va O‘zbekiston noma’lum davlatdan sayohat va biznes uchun qiziqarli manzilga aylandi. Ushbu kombinatsiya respublikada amalga Yuqoridagi malumotlardan shunday xulosaga kelish mumkin-ki, mamlakatimizda eng avvalo turizmni raqamlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, endi-gi navbat esa, ulardan to‘g‘ri va samarali foydalanish talab etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi farmoni PF-6165 09.02.2021
2. Tuxliyev I.S., Qudratov G.X., Pardayev M.Q.. Turizmni rejalashtirish. Darslik. “Iqtisodiyot moliya” nashriyoti. Toshkent. 2010 yil.
3. N.To‘xliev “MICE turizm imkoniyatlarini o‘rganishda germaniya tajribasidan o‘zbekiston sharoitida foydalanish” “O‘zbekistonda MICE turizmining rivojlanishi: istiqbollari va xorij tajribasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: “Lesson Press” MCHJ nashriyoti, 2022. – 5 b.
4. A.S. Abduxamidov “O‘zbekistonda rekreatsion turizmni rivojlantirish istiqbollari” Builders of The Future SJIF-2022-5.752
5. I. O‘roqboev “2030 yilgacha turizmni rivojlantirish uchun munosib sharoitlar yaratiladi” UzA 2024 [2030 yilgacha turizmni rivojlantirish uchun munosib sharoitlar yaratiladi](#)

